

## **Davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha Xarid komissiyasini tuzish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) ehtiyojlari uchun zarur tovar (ish, xizmat)larni qonun doirasida xarid qilishni tashkil etishni davom ettirish maqsadida, **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuniga muvofiq Agentlik ehtiyojlari uchun zarur tovar (ish, xizmat)lar xaridini tanlov o‘tkazish orqali amalga oshirish bo‘yicha Xarid komissiyasi (Xarid komissiyasi) tuzilsin va uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi (U.Azamov):

Xarid qilish tartib-taomillarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida tashkil qilsin.

3. Xarid komissiyasi mas’ul kotibi Buxgalteriya bo‘limi (R.Axmedov) Xarid komissiyasining takliflarni ko‘rib chiqish, baholash va tanlov g‘olibini aniqlash bo‘yicha yig‘ilishini tashkil etish va bayonlarini rasmiylashtirishni o‘z vaqtida amalga oshirib borsin.

4. Ma’muriy xo‘jalik bo‘limi (K.Djalilov) va AKTni rivojlantirish bo‘limi (M.Mirhosilov) Xarid komissiyasining ishchi organi etib tayinlansin.

5. Xarid komissiyasining ishchi organi tanlov g‘olibi bilan imzolangan shartnomalarining bajarilishini nazorat qilish hamda yetkazib berilgan tovar (ish, xizmat)larning sifati va texnik talablarga muvofiqligini tekshirgan holda qabul qilib olish bo‘yicha mas’ul hisoblansin.

6. Agentlikning 2020-yil 10-noyabrdagi 181-sod buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Direktor**

**A.Xodjayev**

2022 yil “ 23 ” avgustdagi  
174 - son buyrug‘i